



“O‘ZMETKOMBINAT” AJ XALQARO REYTINGDA YANADA YUQORILADI 3

SHAFFOFLIK TA‘MINLANIB, SOG‘LOM ISH MUHITI SHAKLLANTIRILMOQDA 5

Po‘lat o‘tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2025-yil 27-mart № 3 (1549)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

EZGULIK, MEHR-OQIBAT, RAHMAT AYYOMI

RAMAZON MUBORAK!

Ramazon oyining ro‘zasini bandalariga farz qilgan Alloh taolaga U Zotning mukammal sifatlariga munosib hamdu sanolar bo‘lsin! Ramazon oyining tunlarida bedor bo‘lishni ummatiga sunnat qilib qoldirgan Payg‘ambarimiz, bu dunyoda hidoyatchimiz, oxiratda shfoatchimiz hazrati Muhammad Mustaf o sollallohu alayhi vasallamga durudu salavotlar bo‘lsin!

Muhtaram mo‘min-musulmon birodarlar, aziz bekobodlik metallurglar, assalomu alaykum va rohmatallohi va barokatuh!

Yaqinlashib kelayotgan muqaddas dinimizning ulug‘ bayrami – Iydul Fitr – Ramazon hayiti bilan Sizlarni samimiy muborakbod etamiz!

(Davomi 2-sahifada).



Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan mamlakatimizning ishlab chiqarish tarmoqlari, va boshqa sohalarda samarali mehnat qilib kelayotgan, faol va tashabbuskor, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar taqdirlandi. Ular orasida kombinatimiz vakillari ham borligi biz uchun yanada quvonarlidir.

Zoldir prokatlash bo‘linmasi kran mashinisti Jamila Tursunqulova “Do‘stlik” ordeni, Mexanika-ta‘mirlash bo‘linmasining ko‘priqli kran mashinisti Gulchehra Xoliqulova “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi.



MAJMUA QURILISHI YAKUNIY BOSQICHDA

“Quyuv-prokatlash majmuasini qurish” investitsiya loyihasi nafaqat “O‘zmetkombinat” AJda balki mamlakatimizda ham keng ko‘lamli loyihalardan biridir. Bu majmua yiliga 1 million tonnadan oshiq issiq holda prokatlangan po‘lat listlarni ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu loyiha korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini ikki barobarga oshiradi.

Bugungi kunga kelib Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi yakuniy bosqichga yetdi. Ayni kunlarda asosiy uskunalarini o‘rnatish ishlari olib borilmoqda. Qurilishga xorijdan mutaxassislar jalb etilgan. Ular boshchiligida majmuani ishga tushirishda mahalliy mutaxassislar ham qurilishda qatnashmoqdalar. Qayd etish joizki, metallurgiya uskunalarini yetkazib berish va o‘rnatish Italiyaning jahonga mashhur “Danieli” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNGI SONDA

E‘TIROF

Fidoyilar mukofotlandi 4

BAYRAM SHUKUHI

Navro‘z bilan keladi shodlik 6

FAXR

Mehnat qilgan elda aziz 7

G‘AMXO‘RLIK

E‘tibordan minnatdor 8

ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

“Harom yegan mol yomon, oxiri qo‘ymas omon” 9

SO‘RAGAN EDINGIZ

... Mehnat haqi saqlanadimi? 10

SALOMATLIK

Bahorgi darmonsizlik kasallik emasmi? 11

TAFAKKUR QIL

Tarix "xatosi" 12

EZGULIK, MEHR-OQIBAT, RAHMAT AYYOMI



RAMAZON MUBORAK!



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Alloh taolaga hamdu sanolar bo'lsinki, boshimizga soyabon bo'lib kelgan Ramazoni sharifning farz ro'zasini ado etishni barchamizga nasib qildi. Butun dunyo Alloh taoloning rahmatiga burkandi, barcha mo'min-musulmonlar subhidamda saharlik dasturxoni atrofida ibodatga kirishdilar, fayzli oqshomlarda esa iftorlik qilib, qalb rohati – taroveh namozlariga oshiqdilar, yurtimizdagi 1700 dan ziyod masjidlarda xatmi Qur'onlar o'qildi. Barcha yurtdoshlarimiz imyon bilan, sabr bilan ro'za tutdilar, tunlari esa masjidlarimizni to'ldirib, taroveh namozlarini o'qidilar, Alloh taoloning kalomiga some' bo'ldilar. Alloh taolo ushbu fazilatli oyda barcha ibodatlarimizni husni qabul aylasin, sahvu xatolarimizni kechirib, gunohlarimizni mag'firat qilsin!

Ramazon hayiti – Iydu Fitr bayrami Islom dinimizning uchinchi rukni bo'lmish ro'za ibodatining ado etilishi munosabati bilan nishonlanadigan buyuk bayramdir, haqiqiy tantana, quvonchli voqeadir. Zero, har bir mo'min-musulmon uchun Robbining ibodatini ado etish chinakam shodiyona, buyuk baxtu saodatdir. Shuning uchun bu bayram imyon halovati bayrami, ibodat, taqvo bayramidir, zikru tasbeh, salavot va duo-istig'for bayramidir. Bu bayramda musulmonlar jome' masjidlarga to'planib, avval bomdod namozini, so'ng iyd namozini jamoat bilan o'qiydilar, xutbadan so'ng duolar qilib, o'tganlarning ruhini shod etadilar, el-yurtga, Vatanga, butun dunyoga tinchlik-xotirjamlik tilab, Alloh taolaga yoradilar. Alloh taolo barchamizga bu bayramni ana shunday ko'tarinki ruhda, shod-xurramlikda, emin-erkin ado etishni nasib qilsin!

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam Madinaga kelganlarida, u (Madinalik)larning ikki kuni bo'lib, ular o'sha kunlarida o'yin-kulgi qilishar edi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Bu ikki kun qandoq kun?”, – deb so'radilar. Ular: “Biz johiliyatda shu kunlarda o'yin-kulgi qilar

edik”, – deyishdi.

Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, Alloh sizlarga u ikkisi o'rniga ular-dan ko'ra yaxshiroq – Azho va Fitr kunlarini berdi”, – dedilar”.

“Sunan” egalari rivoyat qilgan.

Azho – Qurbon hayiti, Fitr – Ramazon hayitini bildiradi.

Demak, bu ikki hayit kunlarini siz bilan biz mo'min-musulmonlarga bevosita Alloh taoloning O'zi bayram qilib bergan ekan. Ularni odamlar o'zlari o'ylab topgan yoki olimlar joriy qilgan emas, balki ilohiy iroda shuni ixtiyor qilgan ekan. Ana shu e'tibordan, ushbu kunlarni bayram qilishning o'zi alohida ibodat hisoblanadi.

Dinimizning nodir manbalarida hayit kunlariga doir odob va ahkomlar batafsil bayon qilingan. Ramazon hayitiga tegishli odob va ahkomlar haqida mulohaza yuritamiz. **Ramazon hayiti kuniga eson-omon yetib kelgan har bir musulmon kishi quyidagi amallarni bajaradi:**

- Iyd kechasini ibodat bilan o'tkazish;
- Hayit namozi uchun g'usl qilish;
- Tishlarni misvok yoki tish pastalari yordamida tozalab olish;
- Iyd uchun yasanish;
- Hushbo'ylik surtish;
- Namozga chiqishdan oldin biror yegulik tanovul qilib olish;
- Fitr sadaqasini berish;
- Hayit namoziga chiqish;
- Iyd namoziga ertaroq, iloji bo'lsa piyoda, viqor bilan takbir aytgan holda borish;
- Xonadon ahliga kengchilik, serobchilikka sharoit yaratish;
- Qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarni ziyorat qilish, beva-bechoralarning holidan xabar olish, ularga xursandchilik ulashish;
- Bolajonlarga hayitlik berish, ularga ushbu bayramning shukuhini ko'rsata bilish,
- Tanish-bilish, yoru-do'st va har bir ko'ringan musulmon kishini hayit bilan tabriklab, ularga xursandchilik va shodlik izhor qilish.

Hayit kuniga doir odoblar to'la-to'kis bo'lishi uchun, ushbu kunda qilish durust bo'lmagan ayrim narsalar haqida ham to'xtalib o'tish darkor. Iyd kunlari quyidagi ishlardan saqlanish lozim.

- Ro'za tutish;
- Iyd namozidan oldin yoki keyin nafl namoz o'qish;
- Gunoh sodir qilish;
- Hayit kunlari ayollarning qabristonlarga borishi yaxshi emas;
- Hayit kunlarini azaga aylantirib olish.

Ushbu ko'rsatmalar va odoblardan ham ma'lum bo'ladiki, musulmonlarning bayram nishonlashi o'ziga xos tarzda bo'ladi. Avvalo ular ushbu kunlarga yetkazganining shukronasi ma'nosida Alloh taolaga bandalik izhor qilishadi – jamoat bo'lib, hammalari bir bo'lib namoz o'qishadi, Alloh taolaga iltijolar qilishadi, bergan ne'matlari uchun U Zotga shukrlar aytishadi. Keyin bir-birlarini hayit bilan qutlab, ziyoratlar qilishadi. Beva-bechoralar, bemorlar holidan xabar olishadi, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar bilan o'zaro bordi-keldilar qilishadi. O'yin-kulgilarini ham axloq-odob doirasida, Alloh taolaga osiy bo'lmagan holda olib borishadi. Ana shundoq qilib, hayit kunlarini faqat yaxshilik bilan, ezgu amallar bilan o'tkazishadi. Shuning uchun, ularning bayramlarida turli tartibsizliklar, har xil noxushliklar yuz bermaydi, balki holatlari yanada go'zallashadi. Zotan, mo'min bandaning hayiti – Allohga bog'liqligi go'zal bo'lgan kunidir.

Alloh taolo butun dunyo musulmonlariga Iydu Fitr bayramini muborak aylasin, butun olamga tinchlik-xotirjamlik ato etsin, ibodatlarimizni dargohida qabul etsin, ona Vatanimizni jan-natmakon qilsin, xalqimizni O'zining roziligini topadigan xalqlardan qilsin! Assalomu alaykum va rohmatallohi va barokatuh!

Ergashboy HAMIDOV,
Bekobod shahar bosh imom xatibi.

MAJMUA QURILISHI YAKUNIY BOSQICHDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Majmua qurilishi nafaqat kombinat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki turdosh tarmoqlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ilgari xorijdan import qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, shu orqali O'zbekistonning tashqi ta'minotga qaramligini kamaytirish imkonini beradi.

Bunday yirik investitsion loyihaning amalga oshirilishi Yangi O'zbekistonning sanoat salohiyatini yuksaltirish yo'lidagi katta qadamdir. “O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining Quyuv-prokatlash majmuasi nafaqat mamlakatimizdagi eng yirik metallurgiya korxonasining, balki barqaror iqtisodiy o'sish, texnik taraqqiyot va sanoat taraqqiyotining ramziga aylanadi.

Ravshan BOLTABOYEV.





**“O‘ZMETKOMBINAT” AJ XALQARO
REYTINGDA YANADA YUQORILADI**

JAHON O‘RTACHA KO‘RSATKICHIDAN YUQORI

O‘zmetkombinat” AJ CDP (Carbon disclosure project) baholash tizimida ikki pog‘ona yuqorilab, “B” darajasiga erishdi.

CDP – har yili kompaniyalar tomonidan iqlim o‘zgarishi (Climate Change), suv (Water) va o‘rmon (Forests) resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha oshkor qilingan ma’lumotlarni baholaydigan eng nufuzli xalqaro ESG reyting provayderlaridan biri.

2024-yilda CDP baholashida butun dunyodan 22 000 dan ortiq kompaniya ishtirok etdi. Baholar “A” (eng yuqori natija) dan “F” (eng past natija) gacha bo‘lgan shkalada qo‘yiladi.

“B” reytingi kompaniya iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni boshqarish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko‘rayotganini, “O‘zmetkombinat” AJning iqlim o‘zgarishi sohasidagi rivojlanish darajasi va natijalari nafaqat jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan, balki butun dunyo metallurgiya kompaniyalari o‘rtasidagi o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichidan sezilarli darajada yaxshiligini anglatadi. 2023-yilda “B” Markaziy Osiyoda eng yuqori baho bo‘lgan edi.

CDP tomonidan reytingda ayrim toifalar orasida “O‘zmetkombinat” AJga korporativ boshqaruv, iqlim xatarlari va imkoniyatlarini boshqarish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va kam uglerodli mahsulotlar ishlab chiqarish, davlat organlari va sanoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati va hokazolar bo‘yicha eng yuqori reyting (“A” darajasi) berildi. Bundan tashqari, CDP “O‘zmetkombinat” AJga qiymat zanjirida issiqxona gazlari chiqindilarini boshqarish bo‘yicha juda yuqori (“A-” darajasi) reytingini berdi.

Iqlim o‘zgarishini boshqarish bo‘yicha erishilgan yutuqlari uchun CDP tomonidan ushbu xalqaro e’tirofni olgan “O‘zmetkombinat” AJ jamoasi barqaror rivojlanish nafaqat majburiyat, balki kompaniyaning yuqori sifatli rivojlanishi uchun real imkoniyat ekanini yaxshi anglaydi. Bunday muvaffaqiyatlar bekobodlik metallurglarni olg‘a intilishga va kelajakda kombinat uchun ham, po‘lat sanoati va O‘zbekiston Respublikasi uchun ham ekologik javobgarlikning yangi, yuqori standartlarini belgilashga ilhomlantiradi.

CDP kabi xalqaro nufuzli tashkilotning bunday yuqori darajadagi reytingi “O‘zmetkombinat” AJ, O‘zbekiston Respublikasi va butun mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

KOMBINAT REYTINGI “BARQAROR” DARAJADA

Yetakchi xalqaro reyting agentliklari uchligiga kiradigan “Fitch Ratings” tomonidan “O‘zmetkombinat” AJning uzoq muddatli defolt reytingi “BB-” darajasidan “B+” darajasiga qayta ko‘rib chiqildi hamda prognozni “salbiy” darajadan “barqaror” darajaga yaxshiladi.

“Fitch Ratings” hisobotiga ko‘ra, “O‘zmetkombinat” AJ reytingning qayta ko‘rib chiqilishi, asosan, qarz yukining agentlik tomonidan kompaniyani reytinglash doirasida qo‘llaniladigan chegaraviy qiymatlardan yuqori darajada uzoqroq saqlanib qolishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunga jahon qora metallurgiya bozoridagi bozor kon’yunkturasining yomonlashuvi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. 2024-2025-yillarda noqulay bozor sharoitlari fonida bir qator po‘lat quyish korxonalari ham xalqaro reyting agentliklari tomonidan kredit reytinglari va prognozlarining pasayishiga duch keldi.

2025-yilda “Moody’s Ratings” xalqaro reyting agentligi Braziliyaning “Companhia Siderurgica Nacional” kompaniyasi hamda uning sho‘ba korxonalari “CSN Inova Ventures va CSN Resources S.A.”ning uzoq muddatli kredit reytingini “Salbiy” darajadan “Barqaror” darajaga o‘zgartirib, “Ba2” darajadan “Ba3” darajaga tushirdi. Shunga o‘xshash harakat ilgari “S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan “Companhia Siderurgica Nacional” kompaniyasiga nisbatan 2024-yil dekabr oyida reyting prognozini “Salbiy” darajadan “Barqaror” darajaga qayta ko‘rib chiqish orqali kompaniyaning kredit reytingini “BB” darajadan “BB-” darajaga tushirish bilan amalga oshirilgan edi. 2024-yilda Xitoyda joylashgan “Taiyuan Iron & Steel” (Fitch Ratings: A), “Baowu Steel Group Corporation Limited” (“Fitch Ratings”: A+) va uning sho‘ba korxonasi “Baoshan Iron & Steel Co. Ltd.” (“Fitch Ratings”: A+), shuningdek, Hindistonning “Tata Steel Limited” (“Fitch Ratings”: BBB-) reyting prognozlari “Barqaror” darajadan “Salbiy” darajaga tushirildi. 2024-yil dekabr oyida Xitoyning “Guangyang Antai” (“Fitch Ratings”: B, 2024-yil 6-dekabr gacha barqaror) kompaniyasi reyting jarayonlarida ishtirok etishni to‘xtatishga qaror qildi, bu esa uning kredit reytingi bekor qilinishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda “O‘zmetkombinat” AJ Quyuv-prokatlash majmuasini qurish bo‘yicha strategik loyihani amalga oshirishning yakuniy bosqichida. Uning tayyorlik darajasi, salbiy bozor omillariga



qaramay, 2024-yil uchun 65 foizdan 90 foizdan ko‘proqqa oshdi. Loyiha kombinatda tayyor mahsulotlarning umumiy quvvatini ikki baravarga oshirish bilan yiliga 2,1 million tonnagacha yetkazish imkonini beradi. Majmuaning o‘zi esa 2025-yilning ikkinchi choragida foydalanishga topshirilishi kerak. Bu esa “Fitch Ratings” kutilmalariga ko‘ra, 2026-yilda kombinatning qarz yukini 3,4 baravargacha va keyinchalik 2027-yilda 3,0 baravardan past darajaga sezilarli darajada kamaytirishga olib keladi. “Fitch Ratings” ma’lumotlariga ko‘ra, loyiha yakunlanishining 90 foizdan ortiq yuqori darajasiga erishilganligini hisobga olgan holda amalga oshirish xatarlari kamaytirildi. Agentlikning ta’kidlashicha, loyihani amalga oshirish orqali kombinat O‘zbekiston Respublikasida import mahsulotlari o‘rnini bosuvchi yirik yassi prokat yagona ishlab chiqaruvchisi bo‘ladi.

Quyuv-prokatlash majmuasini qurishdan tashqari, “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va xomashyo manbalarini diversifikatsiya qilishga hissa qo‘shadigan yana bir qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. “Zoldir prokatlash bo‘linmasi quvvatini yiliga 500,0 ming tonnaga yetkazish”, “Yiliga 990,0 ming tonna ishlab chiqarish quvvatiga ega to‘g‘ridan-to‘g‘ri tiklangan temir ishlab chiqarish fabrikasini qurish” va boshqalar shular jumlasidandir.

“Fitch Ratings” hisobotiga ko‘ra, Quyuv-prokatlash majmuasini qurish loyihasini yakunlash hisobiga ishlab chiqarish quvvatlarining o‘sishi fonida umumiy qarz/EBITDA qarz yuki ko‘rsatkichining pasayishi, likvidlikning yaxshilanishi, davlat bilan aloqalarning mustahkamlanishi ijobiy reyting harakatiga olib kelishi mumkin.

ISSIQLIKNI O‘TKAZMAYDIGAN MATERIALLAR

TALAB ORTIB BORMOQDA

Issiqlikni o‘tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish bo‘linmasi mahsulot tayyorlashda kutilgan natijalarga erishmoqda. Bo‘linmada mineral vata, qattiq va yarim qattiq plitalar, tikilgan matlar kabi sifatli issiqlikni o‘tkazmaydigan mahsulotlar ishlab chiqarishda ko‘ngildagidek natijalarga erishilmoqda.

Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra “O‘zmetkombinat” AJda ishlab chiqarilayotgan ushbu mahsulotlar issiqlikni saqlab turishga a’lo darajada to‘g‘ri keladi. U o‘tga chidamliligi, yuqori haroratlarda ham shaklini yo‘qotmasligi, agressiv muhitlarga, ishqor, moy, kislotalarga chidamliligi, nam tortmasligi, salomatlik uchun xavfsizligi, suv shimuvchanligi, termochidamliligi va shovqinni

yo‘q qiluvchanligi bilan ajralib turadi.

Mazkur mahsulotni ishlatganda u issiqlik energiyasi sarflamaydi, xonalarda mikroiklimni me’yorlashtiradi. Qolaversa, ular yong‘in xavfi bor ob’ektlarda yong‘inga qarshi samarali termoizolyatsiya sifatida qo‘llaniladi. Ta’kidlash lozim bugungi kunda ushbu mahsulotlarga talablar ortib bormoqda.

O‘zbekistondagi doimiy mijozlardan “Farangiz”, “Animosity”, “D-Products”, “Land huse”, “MMS Klass” kabi mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni misol qilib olishimiz mumkin. Bo‘linma qurilish uchun mo‘ljallangan plita, mat mahsulotlarini Qirg‘iziston va Tojikistonga eksport qilmoqda.

Yuklash bo‘yicha brigada boshlig‘i Azimjon



Jabborov, liniya operatori Muzaffar Xolmatov, shixta ishchilari Muxlisa Toshboyeva, Ahmadali Karimov, yuklovchi Ibrohim Hoshimov, usta Xurshid Ro‘ziboyev kabilar reja va topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishiga munosib hissalarini qo‘shib kelayaptilar.

Bahodir RAHMONQULOV.

YANADA SHIJOAT BILAN MEHNAT QILMOQDA

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rkli bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki xotin-qizlar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir.

Bugungi kunda jamiyatimizda xotin-qizlarning oilalarni mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning ko'p asrlik boy ma'naviy merosini asrab-avaylash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va aholi farovonligini yuksaltirish borasidagi ulkan xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib qadrlanmoqda.

4-mart kuni Prezidentimiz ayollarimiz, opa-singillarimizga quvonch ulashgan yana bir hujjat – "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Mamlakatimizning ishlab chiqarish tarmoqlari, tadbirkorlik, ilmfan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va boshqa sohalarida samarali mehnat qilib kelayotgan bir guruh ayollar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlandi.

Ular orasida kombinatimizning Zoldir prokatlash bo'linmasi kran mashinisti Jamila Tursunqulova ham bor. O'zining ko'p yillik samarali mehnati, yuqori kasbiy malakasi va mahorati bilan yurtimizdagi tub islohotlarda faol qatnashib, Yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida tashabbus va ibrat ko'rsatib



kelayotgan Jamila Tursunqulova "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.

Toshkent shahridagi Ko'ksaroy qarorgohida 7-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimiz nomidan ayollarni bayram bilan tabriklab, ezgu tilaklar bildirdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 3-martdagi qaroriga binoan 28 nafar qizga Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, 4-martdagi farmoniga muvofiq, mehnat faoliyati va jamoat ishlarida katta natijalarga erishgan bir guruh ayollarga orden va medallar tantanali ravishda topshirildi.

Zoldir prokatlash bo'linmasi kran mashinisti J. Tursunqulova ham davlat mukofotini shaxsan Prezidentimiz qo'lidan tantanali ravishda qabul qilib oldi.

Mehnati bilan jamoamizda katta hurmat va e'tibor topgan hamkasbimiz mehnatlari yuksak baholanib, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangani va ordenni shaxsan davlat rahbari qo'lidan olganligi uning kuchiga-kuch qo'shib, yanada shijoat bilan mehnat qilmoqda.

Mirzadilshod DUSMURATOV,
Zoldir prokatlash bo'linmasi
kasaba uyushma qo'mitasi raisi.



XIZMATLARI E'TIROF ETILDI

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida ayollarning jamiyat hayoti va davlat faoliyati bilan bog'liq jarayonlardagi faol ishtiroki tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi farmoniga muvofiq, faol va tashabbuskor, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni targ'ib etishda ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni taqdirlash maqsadida "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etilgan.

O'tgan yillarda ko'plab opa-singillarimiz, munis onaxonlarimiz bu mukofot bilan taqdirlandi. Bu yil ham bir guruh opa-singillarimiz "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan mukofotlandi. Ular orasida kombinatimizning Mexanika-ta'mirlash bo'linmasida 38 yildan buyon ko'priqli kran mashinisti vazifasida fidokorona mehnat qilib kelayotgan Gulchehra Xoliqulova ham bor.

Bekobodlik metallurglar vakilasining "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

shi, bir tomondan, yillar davomida el-yurt oldidagi xizmatlarining munosib bahosi bo'lsa, ikkinchi tomondan, boy mehnat tajribasi, jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasining e'tirofi hamdir.

– Mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, jamiyatimizda ayollarning roli yuksalib bormoqda. Jumladan, xotin-qizlarga bo'layotgan e'tibor, ularning o'z o'rniga ega bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, – deydi Gulchehra Xoliqulova. – Mehnatlarim alohida e'tirof etilganidan xursandman.

Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonini topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Vakilimizga mukofotni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova topshirdi.

O'QUV-AMALIY SEMINAR O'TKAZILDI

2025-yil 14-fevral kuni Davlat ishtirokidagi yirik tashkilotlarning ichki audit, moliya-iqtisod, komplaens nazorati va xavflarni boshqarish bo'linmalari xodimlari uchun Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida o'quv-amaliy seminar o'tkazildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura va Hisob palatasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Kombinatimiz vakillari ham qatnashgan bu seminar "Ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik korxonalarda xalqaro standartlar asosida o'tkaziladigan audit turlari, "masofaviy audit" axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini samarali boshqarish omillari" mavzusida tashkil etildi.

Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari Mehridin Abdullayev ushbu idorada amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlarga urg'u berdi. U Hisob palatasi ham o'z faoliyatiga chuqur o'zgartirishlar kiritib, nazorat tadbirlarida faqat xato-kamchiliklarni aniqlash emas, balki tashqi auditga e'tibor qaratgan holda nazorat ob'ektidagi tizimli muammolarni o'rganish va ularning yechimini topishga intilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxanov o'z taqdimotida bugungi kunda Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotga putur

yetkazuvchi korrupsiya illatining oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaviy omillarga chek qo'yishga qaratilgan tizimli, maqsadli va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinayotganligiga e'tibor qaratdi.

Tadbirda xorijiy hamkorlar ham ishtirok etdi. Xususan, "Ernst&Young" kompaniyasining O'zbekistondagi biznes konsalting departamenti direktori Asqar Obidov "O'zsuvta'minot" AJning moliyaviy va operatsion samaradorligini oshirish bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan taqdimot qildi.

Seminarda, shuningdek, qator muhim tematik yo'nalishlarda taqdimotlar tinglandi. Jumladan, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik korxonalarda xalqaro standartlar asosida o'tkaziladigan audit turlari, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun bilan o'rnatilgan talablar va mexanizmlarni samarali joriy etish, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi, kapital qurilish ishlarini amalga oshirish tartiblari, biznes-rejalarni ishlab chiqish masalalari muhokama etildi.



Masofaviy auditni zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida keng ko'lamda qo'llash, Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi hamda vazirlik va idoralarning ushbu dasturga integratsiyasi samaradorligiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi kabilarning mutasaddi vakillari ham seminarida ma'ruza qildilar.

O'quv-amaliy seminar "O'zmetkombinat" AJning Kuzatuv Kengashi huzuridagi Komplaens xizmati boshlig'i To'liqin Xojiyev, Komplaens xizmati menejeri Abror Abdullayev, Ichki Audit bo'limi auditori Umid Abduqodirov, Bosh buxgalter o'rinbosari Xayrullo Sultonov ham ishtirok etdilar.

Umid ABDUQODIROV,
"O'zmetkombinat" AJning Ichki Audit
xizmati auditori.

SHAFFOFLIK TA'MINLANIB, SOG'LOM ISH MUHITI SHAKLLANTIRILMOQDA

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, turli jinoyat va huqubuzarliklarning oldini olish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, "O'zmetkombinat" AJda Komplaens xizmati tarkibiy va hududiy bo'linmalar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning barqarorligini ta'minlash vazifasini bajarimoqda.

Kombinatning korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali 2024-yil davomida 22ta murojaat kelib tushgan. Barcha murojaatlar tegishli tarkibiy bo'linmalarni jalb qilgan holda ko'rib chiqilib, murojaat qilganlarga yozma ravishda javoblar berildi. Kombinat tarkibiy va hududiy bo'linmalari ishchi-xodimlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar berishlarini yengillashtirish maqsadida Telegram ijtimoiy tarmog'ida UMK_Anticorbot ishga tushirildi.

Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishiga murosasiz madaniyatni shakllantirish maqsadida Komplaens xizmati tomonidan hisobot davrida kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida xodimlarning huquqiy

Agar korrupsiyaga barham berilmasa, ertangi kunimiz qanday bo'ladi



ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 42 ta profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tavsiyasi va ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi" xalqaro standart talabi asosida xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurash talablari va bandlari kiritildi.

Mehnat munosabatlarida qonun buzilishi holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan murojaatlarni o'rganish maqsadida hisobot davrida kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida jami 83 xizmat surishtiruvlari va o'rganish ishlari o'tkazilgan, nati-

jalari bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlangan va tegishli chora-tadbirlar ko'rilgan.

Natijalar bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:

- 74 nafar xodimga ogohlantirish berildi;
- 106 nafar xodim ish haqining ma'lum foizidan mahrum etildi;
- 78 nafar xodim ishdan bo'shatildi.

Kombinat xodimlarining aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan 52 ta material huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi talablarini va tavsiyalarini amalda joriy etish ishlari bajarilib 2024-yil 26-oktabr kuni "O'zmetkombinat" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi "ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi" xalqaro standartiga muvofiqlik sertifikatini qo'lga kiritdi.

Bugungi kunda "O'zmetkombinat" AJda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish orqali nafaqat kombinatda shaffof tizim va sog'lom ish muhiti yaratilmoqda, balki bu turli illatlardan holi sog'lom fuqarolik jamiyatining shakllanishiga ham xizmat qilmoqda.

G'anisher NURMATOV,

"O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplaens xizmati menejeri.

AGROTEXNIKA QOIDALARIGA RIOYA ETILMOQDA

KO'KALAMZORLASHTIRISH ISHLARI QIZG'IN

Kombinatdagi yashil hududlarni kengaytirish, manzarali daraxtzorlarni barpo etish va estetik ko'rinishini takomillashtirish ishlari boshlandi. Daraxtlar va butalarni ekish, ularni parvarish qilish, sug'orish, Klining xizmatining ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi uchastkasi mutaxassisleri, ustalari va ishchilariga yuklatilgan. Daraxtlar (Sosna, hind sireni, pavloniya, chinor, tol guli-oleandr), atirgul va butalarni ekish ularning turlariga, iqlim sharoitiga moslashuvchanligiga, yer osti suvlarining yaqinligiga, yerning sho'rlanish darajasiga, sug'orish tizimi mavjudligiga, shuningdek, quyoshli va soya joylarga moslashuvchanligiga, ularning funksional vazifalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Daraxtlar va butalarni ekish ularni parvarish qilish, sug'orish, sxema asosida Klining xizmatining ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi ustalari va ishchilari tomonidan amalga oshiriladi. Klining xizmatining ko'kalamzorlashtirish xo'jaligida, ushbu vazifalarni bajarishga qishloq xo'jaligi ishlaridan xabardor bir guruh ishchilar jalb qilinadi. Daraxt va butalarni ekish mavsumlari ham boshlandi. Ekish ishlari, bahor va kuz oylarida ob-havo sharoiti, daraxtlar va butalarning tutuvchanligi, shuningdek, har bir daraxt va butaning turlariga mos keladigan ekishning agrotehnika qoidalariga rioya etgan holda olib boriladi. Yilning boshqa fasllarida ham ehtiyojdan kelib chiqib, daraxtlar va butalarni ekish mumkin, ularni ko'chirish ishlari daraxtlar biologik uyquga ketgan davrda amalga oshiriladi.

Bu yilgi mavsumda daraxtlar va butalarni sug'orish va oziqlantirish, konsepsiya doirasida ekilgan daraxtlarga tomchilatib sug'orish tizimini amaliyotga joriy qilish, kasallanishiga qarshi kimyoviy dorilash va agrotehnika tadbirlarini amalga oshirish, saqlash, parvarishlash biriktirilgan hududlar yaqinidagi bo'linmalar boshliqlari tomonidan tashkillashtirilmoqda. Yozning jazirama

issiq kunlarida sug'orish ishlari jadal ravishda olib borish maqsadida avtotransport xizmatining maxsus suv quyish va sug'orish uchun mo'ljallangan transportlari jalb qilinadi.

Daraxt va butalarni butash, manzarali daraxtlarning estetik ko'rinishini yaxshilash maqsadida shoxlarni sanitar tartibda butash ishlari kuzgi-qishki faslda - o'simlik dunyosi biologik uyquga ketgan davrda amalga oshirildi. Butashdan hosil bo'ladigan shox-shabbalarni xomashyo sifatida Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasining yog'och maydalash uchastkasiga yetkazilishi ham Klining xizmatining ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi tomonidan amalga oshiriladi.

"Yashil makon" loyihasi doirasida bu yil 10 000 dona manzarali daraxt ko'chatlari, 7 000 dona atirgul va har xil gul ko'chatlari ekish rejalashtirilgan. Bu ko'chatlar Quyuvprokatlash majmuasi, Mexanika-ta'mirlash, Issiqlikni o'tkazmas materiallar ishlab chiqarish bo'linmalari hududlarida ham ekilmoqda.

Kombinatimizning tashqi hududidagi "O'zmetkombinat" 80 yillik bog'ida ham ekilgan daraxt ko'chatlariga ishlov berish ishlari olib borilmoqda. Bog'da sug'orish tizimi yaxshilandi, oqava suvlari ariqlari tozalandi.

Ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borishda Klining xizmatining ishchilaridan Habiba Mamayusupova, Muhabbat Saburova, Fotima Jabborova, Xurshida Minnadirova, Sharifa G'oziyeva, Yorqinoy Qurbonova, Flyura Galiullina, Firuza Eshmatova, Dildora Dadajonova, Svetlana Skvarsova, Nafisa Babashyeva, Lyubov Ryabova, Nafisa Abdug'offarova, Zumradoy Davronova, Ziyoda Soqiyeva, Munavvar Qahramonova, Saodat Jo'raboyevlar boshqalarga ibrat ko'rsatib ishlayotadilar.

Xurshid VALIBEKOV,
Klining xizmati ishchisi.



QADRIYATLARING BOQIY BO'LSIN, NAVRO'Z!

Sharqona yangi yil boshlanadigan qutlug' kun - Navro'zi olam asrlar davomida bahor, ezgulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutib kelmoqda.

Bu munavvar ayyom keyingi yillarda Vatanimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun, inson baxti uchun", degan olijanob g'oyaga hamohang bo'lib, tom ma'noda umumxalq bayramiga aylandi hamda mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida keng nishonlandi. Ushbu ulug' faslning ruhi va falsafasida mujassam bo'lgan gumanizm, odamzotni butun borliqning gultoji sifatida e'zozlash, ona zamin va tabiatni asrab-avaylash tamoyillari bugungi kunda hayotimizda yanada yorqin namoyon bo'lmoqda.



"Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili"da nishonlangan bu yilgi Navro'z shodiyonalari shu bois yangicha ruh va mazmun kasb etdi.

Navro'z umumxalq bayrami butun mamlakatimizda bo'lgani kabi Bekobod shahrida ham "Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida tashkil etildi.

18-mart kuni shahrimizning "Yoshlar bog'i"da Navro'zga bag'ishlangan bayram tantanalari bo'lib o'tdi. Shu kuni karnay-surnay sadolari bekobodliklarni bayram tadbirlariga chorladi.

Umumxalq saylda shahar Madaniyat bo'limi, musiqa maktabi ijodiy jamoalari tomonidan konsert dasturi namoyish etildi.

Bayramona kuy va qo'shiqlar, raqslar barchaga ijobiy kayfiyat bag'ishladi.



yev sahnaga ko'tarilib barchani bayram bilan tabriklab, eng yaxshi tilaklarini bildirdi. Qardosh Tojikiston Respublikasi Mastchoh tumani hokimi o'rinbosari Muzaffar Azizzoda ham bekobodliklarni bayram bilan tabrikledi.

Shundan so'ng Bekobod shahridagi eng faol mahalla fuqarolar yig'inlarini taqdirlash marosi-mi bo'lib o'tdi. Mahallalar vakillariga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

Bayram saylida jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash maqsadida yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlar vakillarining milliy urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini keng namoyish qilindi.

Navro'z bayramiga bag'ishlangan bu tantanalarda "O'zmetkombinat" AJ xodimlari ham faol ishtirok etdilar. Elektrda po'lat eritish, Navli prokatlash, Zoldir prokatlash bo'linmalari jamoasi, shuningdek, kombinat markaziy laboratoriyasi va kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi "Yoshlar bog'i"ga yurtimizning ikki go'zal hududi Qoraqalpog'iston va Surxondaryo viloyatlarining an'alarini,

urf-odatlarini ifodalovchi to'kin dasturxonli o'tovlarni o'rnatdilar.

Metallurglarimiz Surxondaryo viloyati o'tovida bahorning eng laziz taomlari, shirinliklar, norin, sumalak, ko'k somsa kabilar bilan dasturxon yozib, haqiqiy sharqona bayram muhitini yaratdilar.

Qoraqalpog'iston o'tovi chiroyli milliy gilamlar bilan bezatildi. O'tovda qoraqalpoglarning an'anaviy taomlari va mehmondo'stligi barchaga manzur bo'ldi.

Umumxalq sayli ishtirokchilariga yanada yuqori bayram kayfiyati ulashish maqsadida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ilhom Farmonov ham Bekobodga taklif qilingan edi. U muxlislar uchun tanish va qarddon bo'lgan go'zal qo'shiqlarini ijro etdi.



Alohida maydonchalarda yosh sportchilar taekvondoning WTF yo'nalishi va sambo kurashi bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etishdi. "Lyubava" rus folklor ansambli rus va o'zbek til-larida bahor haqidagi eng yaxshi qo'shiqlarini ijro etdi.

Bekobod shahar hokimi Nasrullo Bobo-



Bayram tadbirlari borliqning uyg'onishi, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ona zaminga mehr va e'tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg'usi bilan yashashga undaydigan ta'sirchan mazmun va shaklda o'tkazildi.

Akbar BOBOYEV.

QIZIQARLI BELLASHUVLAR

20-mart kuni Metallurglar sport sog'lomlashtirish majmuasida Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab kombinat ishchi-xodimlari o'rtasida spartakiada bo'lib o'tdi. Spartakiadaning ochilish marosimida kasaba uyushma qo'mitasi raisi o'rinbosari B. Qodirov barcha ishtirokchilarni Navro'z bayrami bilan tabriklab, samimiy tilaklarini bildirdi.

Mazkur sport musobaqalarida tosh ko'tarish, yengil atletika, milliy kurash bo'yicha metallurglar o'zaro kuch sinashdilar.

Navro'z bayramiga bag'ishlab qiziqarli va murosasiz o'tgan sport musobaqalarida g'olib va sovrindor bo'lgan ishchi-xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Ismoil UMATQULOV.



MUROSASIZ O'TDI

Metallurglar madaniyat saroyida kombinat kasaba uyushmalari qo'mitasi tomonidan Navro'z bayramiga bag'ishlab shaxmat bo'yicha xotin-qizlar o'rtasida musobaqa tashkil etildi.

Musobaqa ko'tarinki kayfiyatda o'tib, qizg'in va murosasiz kurashlarga boy bo'ldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Musobaqada Mavluda Kenjayeva (Ijro apparati) g'olib chiqdi. 2-o'rin Patigul Qurbonova (Tok tarmoqlari va podstansiya) va 3-o'rin Sevara Yo'ldosheva (MSVaS-REXX) nasib etdi. G'olib va sovrindorlar kombinat diplom, medallar va sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Furqat XOLIQULOV.

MEHNAT QILGAN ELDA AZIZ

Nosir Ergashev va Sirojiddin Rizaqulov kombinatimizning Elektrda po'lat eritish bo'linmasida o'z kasbining fidokorlari va tajribali bo'lgan mutaxassislardan hisoblanadi. Ular ohak kuydirish uchastkasida ko'p yillar elektrmontyor bo'lib ishlaganlar.

Ustozlaridan kasblarining barcha sir-asrorlarini mukammal o'zlashtirib olgan bu elektrmontyorlar sohada yaxshi malaka va tajriba to'plashgan. O'zlari ustoz darajasiga yetishgach bir qator shogirdlarining malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlariga yordam qildilar.

O'z vazifalarini sidqidildan bajarib kelgan bu malakali mutaxassislar mehnatlari, insoniy fazilatlar bilan jamoada hurmat-e'tibor qozonishgan. Bo'linmada erishilgan mehnat muvaffaqiyatlarida o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Yaqinda Elektrda po'lat eritish bo'linmasida 40 hamda 39 yildan ishlagan Nosir Ergashev va Sirojiddin Rizaqulovni hamkasblari kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda faxriylar safiga munosib kuzatishdi.

Bu insonlar bilan birgalikda mehnat qilgan hamkasblari ularning mehnat faoliyatlari to'g'risida yaxshi fikrlarini, tilaklarini bildirdilar. Pensiyaga kuzatilayotganlar elektrda po'lat erituvchilar jamoasida uzoq yillar ajoyib hamkasblari bilan ishlaganidan xursandliklarini aytib o'tishdi.

Ma'ruf ALLAMURODOV.



TAHRIRIYATIMIZ MEHMONI

80 yoshga qarab ketayotgan Abdusalom xoji Toshkandiy (Abdullayev) pedagogika sohasida ko'p yillar samarali mehnat qilgan. O'z vaqtida viloyatimizda, hatto mamlakatda ham eng yaxshi ona tili va adabiyoti o'qituvchilaridan biri hisoblangan. Ma'lum muddat "Metallurg minbari" gazetasida ham o'rindoshlik asosida faoliyat ko'rsatgan. Keng jamoatchilikka shoir sifatida ham yaxshi tanish. Qator she'riy tanlovlarda, jumladan "O'zmetkombinat" AJga bag'ishlangan shoir-lar tanlovida ham g'olib chiqqan.

HAJ

Yetti xoji barhaq bu kun oilamda,
Bundan ortiq baxt bo'larmi bu olamda!

Buni Makka, Madinani ko'rgan aytar,
Baytullohni yetti tavob qilgan aytar.


Chumoliday chuvar mo'min-musulmonlar,
Gado bilan bir sajdada ne sultonlar.

Arsh ziyosi, shafokatgoh – yor Muhammad,
Salovatlar yog'ib turar, yog'ar behad.

Ey birodar, niyat birlan ehrom bog'la,
Chaqaloqday pok bo'lishga o'zni chog'la.

Parvozda – nur Yangi Toshkent tayyorasi,
Sallamnoda Shunqor, Guli, Sayyorasi.

Qiblang Ka'ba nomozgohin Masjidul
Harom bo'lsin,
Shoirlar ham Allohdan haj fazlu karam
bo'lsin!



KORXONAM MENING

Po'lat oqim jilg'amas,
Daryo bo'lib ko'pirar.
Olovda ko'z ilg'amas,
Oftob yuragi urar.
Yolqin nurxonam mening,
Po'lat korxonam mening.

O'zbegimning xalqaro,
Iftixori o'zingsan.
Istiqlolning shukuhli,
Karvon nori o'zingsan.
Yakka-yagonam mening,
Po'lat korxonam mening.

Sabru bardoshni sinar,
Cho'g'lab sapchib ishchiga.
Hatto vulqon tan berar,
Uning tolmas kuchiga.
Mardu mardonim mening,
Po'lat korxonam mening.

Elda bayram yozib she'r,
Hayit bilan qutlayin.
Marjon-marjon to'kib ter,
Tuzu noning oqlayin.
Shinam she'rxonam mening,
Po'lat korxonam mening.

**Abdusalom xoji
TOSHKANDIY**

ULAR BIZNING FAXRIMIZ

HURMATGA MUNOSIB INSON

To'lqin Mavlyanov sidqidildan qilayotgan mehnati bilan hamkasblari oldida obro'-e'tibor topgan. U Bekobod shahrida tug'ilgan. Maktabdagi yillarida fizika fanini yaxshi ko'rib, har bir darsni chuqur o'zlashtirgani kasb tanlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qildi.

Sirdaryo viloyatining Shirin energetika texnikumida texnik-elektrik yo'nalishida tahsil olgan.

1993-yil ish faoliyatini kombinatimizning elektr tarmoqlari va podstansiyasi sexida katta usta vazifasidan boshlagan. O'tgan yillar mobaynida o'z sohasida ko'p bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldi.

Elektr tarmoqlari va podstansiyalari bo'linmasining Bosh pasaytirish podstansiya uchastkasida katta usta lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan T. Mavlyanovga kombinatni uzluksiz elektr energiyasi bilan taminlashda katta mas'uliyat yuklangan. U tajriba va malakasi, vazifasini namunali bajarishi bilan jamoadoshlari orasida hurmat qozongan. Kombinat boshqaruvi va Kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan "Faxriy yorliq" va esdalik sovg'alar bilan taqdirlangan.



– Kombinatni elektr energiyasi bilan taminlashga barchamiz birdek mas'ulmiz, – deydi T. Mavlyanov. Uning fikriga ko'ra, jamoadagi ahillik va birdamlik har qanday muvaffaqiyatning kalitidir.

32 yillik mehnat faoliyatida ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi. Shogirdlari usta Olim Yusupov, havo liniyasi ustasi Sherzod Ergashev, elektromontyorlar Abdurashid Uralov, Zokir Ermatov kabilar tajribali kasb egalari bo'lib yetishishdi.

To'lqin akaning insonlarga bo'lgan samimiyati kasbga bo'lgan mas'uliyati va atrofda qilargalarga bo'lgan mehr-e'tibori har doim hurmatga loyiq.

**Shamsiya XOLMATOVA,
Elektr tarmoqlari va
podstansiyalar bo'linmasining
boshlang'ich kasaba uyushma
qo'mitasi raisi.**

**Suratda: o'z kasbining ustasi,
yoshlar murabbiyi To'lqin
Mavlyanov (chapda).**

ULAR BIZNING FAXRIMIZ

MALAKALI MUTAXASSIS

Abduvali Akbaraliev 40 yildan buyon Temir-tersaklarni qayta ishlash bo'linmasida metallarni gazda kesuvchi kasbida mehnat qilib kelmoqda. U kombinatga ishga kirgan vaqtda yosh yigit edi. Unga ustozlari Sherali Turdiboev kasbining sir-asrorlarini o'rgatib, malakali mutaxassisga aylanishiga yordam berdi.

Bugunga kelib uning o'zi ustoz. Yoshlarga tajriba va malakalarini o'rgatib, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yaqindan yordam berib kelyapti.

Shu bilan birga mehnatda yoshlarga o'rnak ko'rsatib kelmoqda. Har ish kunida 9 tonna metall kesib oldiga qo'ygan topshiriqlarni munosib bajarib, hamkasblariga o'rnak bo'lmoqda.

FAXRIYLAR E'TIBORDAN MINNATDOR

“O'zmetkombinat” AJda ishlab pensiyaga chiqqan mehnat faxriylari uchun alohida e'tibor va g'amxo'rliklar ko'rsatilmoqda. Faxriy metallurglarning sog'liklarini mustahkamlash, maroqli dam olishlari nafaqat ularning yaqinlari, balki kombinatning ham e'tiborida. Ularga shahrimizdagi sanatoriy-profilaktoriy hamda “Metallurg” pansionatiga imtiyozli ravishda yo'llanmalar berilmoqda. Pensionerlar va faxriylarning ijtimoiy va moddiy holatini yaxshilash, ularga maishiy, tibbiy, madaniy va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Bekobod filiali bu yo'nalishlarda munosib ishlarni tashkil etib kelmoqda. Filial tomonidan faxriylar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, shuningdek, sport tadbirlar tashkil etilmoqda. Metallurgiya sanoati yosh mutaxassislarining tajriba va malakalarini oshirishda pensionerlarning boy kasb va hayot tajribasidan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Yoshlarimizning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirish, ularni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, metallurgiya sohasiga qiziqishlarini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari bilan mehnat faxriylari, orden va medallar sohiblarining uchrashuvlari muntazam ravishda o'tkazilmoqda.

Bekobodlik faxriylarning boy kasbiy tajriba va ko'nikmalaridan unumli foydalanilgan holda Toshkent davlat texnika universitetida, Moskva Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi

“Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISiS”ning Olmaliq shahridagi filialida hamda Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filialida metall eritish, prokat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish mavzusida ma'ruzalar o'tkazish tashkil etilgan. Filial tomonidan professor va talabalar “O'zmetkombinat”ga taklif qilinib, ularni bo'linmalar faoliyatlari, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar bilan bevosita tanishtirish tadbirlari yaxshi bir an'anaga aylandi.

Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Bekobod shahridagi hududiy filiali tomonidan o'tgan yilda turli yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi.

Filial xodimlari tomonidan pensiyadagi bemor faxriylar ahvolidan xabar olinmoqda. Zarur bo'lganda ularga moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiy komissiya xulosasiga ko'ra bemorlar shifoxonaga yotqizilib, dori-dormonlar uchun

mablag' ajratilyapti. Bir necha faxriylarning ko'zlarini davolash uchun jarrohlik amaliyotlari Kengash mablag'lari hisobidan amalga oshirildi.

Kengash komissiyasining doimiy dalolatnomasiga asosan 29 nafar faxriylar Bekobod shahar markaziy shifoxonasida bepul sog'lomlashtirildi. Bundan tashqari mehnat faxriylariga 5 dona nogironlik aravachasi olib berildi. 5 dona quloq eshitish apparati olib berildi. Shu bilan bir qatorda 142 nafar mehnat faxriysiga O'zbekiston Respublikasining turli sihatgohlariga bepul yo'llanmalar berildi.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar, Navro'z bayramlarida, “Xotira va qadrlash kuni”da, Metallurglar kasb bayramida hamda Mustaqillik va Yangi yil bayramlarida ehtiyojmand, oilaviy sharoiti e'tiborga olingan holda 254 nafar faxriyga ijtimoiy yordam ko'rsatildi.

O'tgan yilning aprel-oktabr oylarida 150 nafar mehnat faxriysi uchun Samarqand shahriga 2 kunlik sayohat tashkil qilindi. 7 nafar mehnat faxriysi “Faol faxriy” ko'krak nishoni bilan taqdirlanib, ularga bir martalik pul mukofotlari berildi.

Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod filiali tomonidan ko'plab mana shunday savobli va xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan, shubhasizki, faxriy metallurglar shod va minnatdor!

Ismadiyor MAMATQULOV.

Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Bekobod filiali tomonidan sport musobaqalari tashkil etildi. Bu sport musobaqalarida kombinatimiz mehnat faxriylari stol tennisi, shaxmat va katta tennis o'yinlarida o'zaro kuch sinashdilar.

SPORT MAYDONIDA FAXRIYLAR

Erkaklar o'rtasida bo'lib o'tgan stol tennisida Mirpo'lat Mirsagatov g'olib chiqdi. 2- va 3-o'rinlarni To'liqin Mierbekov hamda Erkin Tursunqulov egalladi.

Ayollar orasida Zulayha Babasheva barcha raqiblaridan ustun kelib birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Saida Sharipova uchinchi o'rin Irina Osmanovaga nasib etdi.

Shaxmatchilar bahsida birinchi o'rinni Ahmadjon Qudratov egalladi, Rustam Erbo'yev 2-, Yo'lbichoy Haydarov 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Katta tennisda Shahidbek Yo'ldoshevga teng keladiganlar topilmadi. 2- va 3-o'rinlarni esa Yevgeniy Baranov va Hamid Xojimatov egalladi.

Musobaqada g'olib va sovrindor bo'lgan faxriylar Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining diplom, medal va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Ko'tarinki kayfiyatda, qizg'in va do'stona ruhda o'tgan bahslar ishtirokchilarda yaxshi taassurot qoldirdi.

Inomjon JANGIROV.



TADBIRKORLIK UCHUN OLDINDAN NOM OLING!

Endi firma nomini buyurtma qilish mumkin.

Xizmat ko'rsatish tartibi jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlaridan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qiladi yoki tizimdagi shaxsiy kabineti orqali ro'yxatdan o'tadi.

Tizim orqali so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnoma o'zining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlaydi.

Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qilinganda va so'rovnomaning eri bilan tasdiqlash imkonini bo'lmaganda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari ham tasdiqlanishi mumkin.

Xizmat (So'rovnoma) vakolatli organ – Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali ko'rsatiladi.

Firma nomini oldindan zahira qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50% miqdorida to'lov qilinadi.

So'rovnoma ikki ish kuni davomida ko'rib chiqiladi hamda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha buyurtma qilingan firma nomi band qilinadi yoki band qilish rad qilinadi.

Davlat xizmati ko'rsatishni rad qilishga quyidagilar asos bo'ladi:

- tanlangan firma nomi tizimda boshqa shaxs tomonidan zahiraga olingan bo'lsa;
- buyurtma qilingan firma nomi O'zbekiston Respublikasi “Firma nomlari to'g'risida”gi Qonunining 4-moddasida belgilangan talablarga zid bo'lsa;
- buyurtma qilingan firma nomi reglament qoidalariga tabiiq etilmaydigan yo'nalishlar bo'yicha berilgan bo'lsa.

Firma nomini 60 kungacha zahirada saqlab, zahiraga olingan muddat tugasa, uni qo'shimcha ravishda bir marotaba 12 oydan oshmagan muddatga BHMning 1 baravari miqdorida to'lov to'lagan holda uzaytirish mumkin.

Ushbu davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markazlari yoki elektron tizim orqali (birdarcha.uz) murojaat qiling!

Asos: Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-fevraldagi 65-son qarori.

X. PRNAZAROV,
Toshkent viloyati adliya
boshqarmasi sho'ba boshlig'i.



Xalqimizda “Harom yegan to‘ygancha, kaltak yeydi o‘lgancha” degan maqol bor. Harom narsa hech kimga hech qachon yuqmagan. Odamlar buni bilsalar-da, negadir haromdan pul topib, ko‘pchilik haqiga xiyonat qilishga bo‘lgan harakatlar to‘xtamayapti.

Nurbek Qilichov ko‘pchilikning haqidan o‘mar-moqchi bo‘lib, “O‘zmetkombinat” AJ hududidan umumiy qiymati 750 000 so‘m bo‘lgan 1 dona bolgarka apparatini olib ketmoqchi bo‘ldi, ammo siri ochilib qoldi.

2024-yil 18-sentabr kuni ish vaqti tugaganidan so‘ng “O‘zmetkombinat” AJning 4-sonli Nazorat o‘tish joyida uning ust-boshi ko‘zdan kechirilgan vaqtida o‘ziga tegishli bo‘lmagan apparatni yashirin ravishda olib ketayotganligi ma‘lum bo‘ladi. Harbiy xizmatchilar tomonidan u boshqa shaxsning nomi bilan ro‘yxat asosida chiqib ketayotganligi ham aniqlanadi.

OCHIQ SUD MAJLISIDA

“HAROM YEGAN MOL YOMON, OXIRI QO‘YMAS OMON”

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzar Nurbek Qilichovning aybi, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma‘muriy bayonnoma, ashyoviy dalilni olish bayonnomasi, tushuntirish xatlari hamda to‘plangan ish hujjatlariga asosan to‘liq o‘z isbotini topgan deb hisobladi.

Huquqbuzarga nisbatan jazo qo‘llashda uning shaxsini, yoshini, oilaviy sharoitini va moddiy ahvolini, sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini, yetkazilgan zarar mavjud emasligini inobatga olib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini qo‘llashni lozim deb topdi.



Sud qarori bilan huquqbuzar O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida jarima jazosi qo‘llanildi.

Ashyoviy dalil sifatida olingan bolgarka apparati tegishli tartibda “O‘zmetkombinat” AJga qaytarib topshirilganligi inobatga olindi.

“Harom yegan mol yomon, oxiri qo‘ymas omon” deganlaridek ko‘pchilikning mulkiga ko‘z olaytirishning oqibati yaxshilik bilan tugamaydi.

Ishchi o‘z ish joyidagi jihozlar, ish qurollari, asbob-uskunalar va shularga o‘xshash barcha narsalar uchun omonatdordir. Ular korxona mulki bo‘lib, xodimlarga ishonib topshirilgan. Ishchi ulardan o‘z qoidasiga ko‘ra, ehtiyotkorlik va mas‘uliyat bilan unga yuklatilgan ish vaqtida foydalanishi kerak. Ishchi ulardan shaxsiy maqsadda foydalanishi, rahbariyatning ruxsatisiz o‘ziniki qilib olishi, ishxonadan tashqariga olib chiqib ketishi mumkin emas.

Bu qoida va tartiblarni buzish esa javobgarlikka sabab bo‘lishini unutmazlik lozim.

Farhod ZOKIROV, Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod shahar sudi sud‘yasi.

YOSHLARNI GIYOHVANDLIK DAN ASRASH – DOLZARB MASALA

Barchamizga ma‘lumki giyohvandlik insoniyatni jismoniy va ruhiy jihatdan tubanlikka eltuvchi, aql-idrokdan mahrum etib, bu dunyoda ham, u dunyoda ham insonni xorlikka yetaklovchi ofatdir. Giyohvand moddalar insonni ayni kuch-quvvatga to‘lgan davrida alkogolga nisbatan 4-6 barobar tezroq halokatga uchratadi.

Giyohvandlikning insoniyat genofondiga solayotgan xavfi hozirning dolzarb muammosi ekanligi hech kimga sir emas. Bu ofatga qarshi xalqaro miqyosda qattiq kurash olib borilmoqda. Shunga qaramay, dunyo bo‘yicha millionlab odamlar giyohvandlik balosiga giriftor bo‘lgan.

GIYOHVANDLIK BOSQICHLARI

Mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra, giyohvand moddalar iste‘mol qilingandan so‘ng narkotik sarxushlik holati yuzaga keladi. Bunda yuqori kayfiyat, ko‘p kulish, telbalik, diqqat chalg‘ishi, lanjlik, harakat muvofiqligining buzilishi, qadam tashlashning o‘zgaruvchanligi namoyon bo‘ladi. Ba‘zida beg‘amlik, xayolparastlik, badjahllik, jizzakilik, tajovuzkorlik kuzatiladi. Ushbu belgilar giyohvandlikka moyillikning birinchi bosqichi bo‘lib, bunda narkotik moddaga ruhiy moyillik paydo bo‘ladi, organizmning himoya jarayoni susayadi.

Ikkinchi bosqichda giyohvand narkotik moddaga yengib bo‘lmas darajadagi hirs qo‘yadi, organizm narkotik ta‘siri ostida qolib, jismoniy qaramlik yuzaga keladi.

Uchinchi bosqichda organizm narkotik moddalarga qarshi kurasha olmay qoladi, bemorlarda giyohvand moddalarsiz yashay olmaslik xususiyatlari paydo bo‘ladi. Kuchli og‘riq kuza-tilib, narkotikka butkul qaramlik yuzaga keladi. Narkoman organizmning holdan toyishidan, preparat dozasini tasodifan oshirishdan, tekshirilmagan moddani qabul qilishdan, ukoldan zararlanishdan, depressiv holatdan o‘lib qolishi mumkin. Narkoman bo‘lib qolgan kishi boshqa



hech narsaga qiziqmay qo‘yadi, kuch-quvvatdan qolib, mehnat qobiliyatini yo‘qotadi.

ASORATLARI

1. Iqtisodiy asoratlar: katta pul sarflani-shi, daromadlarning yo‘qolishi, ishni yo‘qotish, qarzga botish, talonchilik va tilanchilik.
2. Ma‘naviy asoratlar: oilalarning buzilishi, befarqlik, tushkunlik, norozilik, xudbinlik, mahdudlik.
3. Jinoiy asoratlar: o‘g‘rilik, bosqinchilik, odam o‘ldirish, urush va terror.



SOG‘LIQQA ZARARLARI

- odamning ko‘ziga har xil qo‘rqinchli narsalar ko‘rinadi, qattiq qo‘rqadi;
- jinsiy mayl yo‘qoladi va mijoz keskin susayadi;
- OITS bilan kasallanish darajasi ortadi (OITS kasalligiga chalinganlarning 80 foizdan ko‘pini giyohvandlar tashkil qiladi);
- homiladorlik davrida narkotik moddani iste‘mol qilgan ayollardan kasalmand bolalar tug‘iladi;
- so‘lagi va ko‘zidan yosh oqadi, terlaydi,

GIYOHVANDLIK

UMR

ZAVOLI



titrab-qaqshaydi, muskullari zo‘riqadi;

– me‘da-ichak ishi buziladi, tirishib, tutqanoq tutadi va hatto og‘ir psixoz boshlanadi;

– og‘iz bo‘shlig‘i, til qizilo‘ngach, o‘pka saratoni, yurak, qon-tomir, nafas olish, oshqozon ichak, jinsiy kasalliklarga olib keladi.

HAR BIRIMIZ JAVOBGARMIZ

“Asr vabosi” nomini olgan giyohvandlik insonning osuda hayotiga rahna solib, ongini o‘ziga bo‘ysundiruvchi zahri qotildir. Bu shunday qurolki, o‘z domiga ilintirgan odamni razolat dunyosiga yetaklaydi va bu jarayonda inson jamiyatdagi o‘rnini yo‘qota boshlaganini anglamay qoladi.

Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, organizmda unga qarshi immunitet hosil qilinishi darkor. Demak, giyohvandlikka qarshi kurashish, yoshlarni bu balodan asrash uchun targ‘ibot-tashviqot ishlari ko‘lamini yanada kengaytirish, shu orqali, ayniqsa, yoshlar ongu shuurrada immunitetni kuchaytirishimiz zarur.

Bu borada ota-onalar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklanadi. Har bir ota-ona farzandiga, undagi psixologik o‘zgarishlarga e‘tiborsiz bo‘lmasligi, uning har bir kuni qanday o‘tganligi bilan qiziqishi, bolasi bilan ko‘proq muloqotda bo‘lishi, psixotrop va narkotik moddalarni iste‘mol qilishning salbiy oqibatlarini tushuntirishi kerak.

Giyohvandlikka qarshi kurash nafaqat davlat, balki jamiyatning keng qatlamlari ishtirokini talab qiladi.

Har birimiz kelajak avlod barkamolligi, ertangi kunimiz farovonligi uchun javobgarmiz.

Diyor ZULFIQOROV.

Xodim malaka oshirishda bo'lgan vaqtda ish haqi saqlanadimi?**A. Ashirov.**

Mehnat kodeksining 367-moddasiga asosan malaka oshirish deganda xodimning undagi mavjud kasb va mutaxassislik bo'yicha ishlarni bajarishga tayyorligini tavsiflovchi, xodimning kasbiy bilimlari, malakalari va ko'nikmalari darajasini takomillashtirish tushuniladi. O'z navbatida, Mehnat kodeksining 280-moddasi (ish beruvchining xodimga kafolatli to'lovlarni amalga oshirish majburiyati)ga ko'ra, ish beruvchi xodimga xodim ishdan ajralgan holda o'zi va ish beruvchi uchun majburiy bo'lgan qayta tayyorlashdan yoki majburiy malaka oshirishdan o'tgan davr uchun kafolatli to'lovlarni amalga oshirishi shart.

Shu kabi qoida Mehnat kodeksining 286-moddasi (ish beruvchining xodimga kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish majburiyati)da ham quyidagicha belgilab qo'yilgan: xodim ish beruvchining yo'llanmasi



bilan kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlash, malaka oshirish va stajirovkadan o'tganda xodimga uning o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq xarajatlarni ish beruvchi kompensatsiya qilishi shart. Xulosa qilib aytganda, xodim malaka oshirishda bo'lganda uning o'rtacha ish haqi to'lab berilishi shart.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 290-moddasiga binoan agar ish beruvchining yo'llanmasi bo'yicha xodimning kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash, malaka oshirish va stajirovkadan o'tishi boshqa joyga ko'chishni talab qilsa, xodimga o'qish joyiga borish va qaytib kelish, shuningdek uy-joyini ijaraga olish xarajatlarning o'zni qoplanadi.

XODIMGABOSHQAISH TAKLIFQILINADIMI?

Agar xodim ishga tiklansa, uning o'rniga kelgan xodim ishdan bo'shatiladimi?

G. Valijonova.

Mehnat kodeksining 168-moddasi mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra bekor qilish tartibini belgilaydi. Mazkur moddaning birinchi qismi 2-bandiga asosan shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning avvalgi ishga tiklanganligi munosabati bilan uning o'rniga olingan xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish belgilangan. Ya'ni sudning qaroriga ko'ra o'z ishiga tiklangan xodimning o'rniga qabul qilingan shaxs MKning 168-moddasi 1-qismi 2-bandi bilan ishdan bo'shatiladi. Biroq MKning 144-moddasining birinchi qismiga asosan agar mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasiga doir ishni xolisona sabablarga ko'ra davom ettirish imkoni bo'lmasa, ish beruvchi xodimga uning mutaxassisligi va malakasiga muvofiq keladigan boshqa ishga



o'tkazishi, bunday ish bo'lmagan taqdirda esa ish beruvchida mavjud bo'lgan boshqa ishni taklif etishi shart. Mazkur moddaning 2-qismiga ko'ra xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ushbu Kodeks 143-moddasining ikkinchi qismida, 161-moddasi ikkinchi qismining 2 va 3-bandlarida, 168-moddasi birinchi qismining 2, 4, 5 va 9-bandlarida, 489-moddasi birinchi qismining 1-bandida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra bekor qilingan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyat ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. Ya'ni bu degani, agar xodim MKning 168-moddasi 1-qismi 2-bandi bilan ishdan bo'shatilayotgan bo'lsa, ish beruvchida uni boshqa ish bilan ta'minlash majburiyati yotadi. Ish beruvchi bo'shatilayotgan xodimga boshqa ish taklif qilishga majbur.

O'RINDOSHLARGA TA'TILQANDAY BERILADI?

O'rindoshlik asosida ishlayotgan xodim mehnat ta'tilini qachon va qanday oladi?

D. Salimov.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktabrdagi 297-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizomining 16-bandiga asosan O'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga har yilgi asosiy va qo'shimcha ta'tillar asosiy ish joyidagi har yilgi mehnat ta'tili bilan bir vaqtda beriladi.

Ya'ni, xodim o'rindoshlik ish joyidan istalgan vaqtda mehnat ta'tili ololmaydi, qachonki, asosiy ish joyida ta'til olayotgan bo'lsagina, o'rindoshlik ish joyidan asosiy ish joyidagi ta'til bilan bir vaqtda ta'tilga chiqa oladi.

Buning uchun xodim o'rindoshlik joyidagi ish beruvchiga asosiy ish joyidagi ish beruvchi tomonidan mehnat ta'tiliga chiqishi haqida (15 kun oldin) berilgan xabarnoma yoki ta'tilga chiqish haqidagi buyruq nusxasini taqdim etib, ariza yozadi. Shu asosida o'rindoshga mehnat ta'tili berilishi to'g'ri bo'ladi.

**MEHNAT HAQI SAQLANADIMI?****... ISHGA KIRGANLAR PENSIYA HAM OLADILARMI?**

O'tgan yili 58 yoshimda korxonada qisqartirishga tushib muddatidan oldin pensiya olishni boshlagan edim. Endi yana ishga kirsam pensiyani olishda davom etaveramanmi?

I. Adhamov.

Ma'lumki alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibiga asosan umumiy mehnat staji yigirma besh yildan kam bo'lmagan taqdirda erkaklarga 58 yoshdan 60 yoshgacha, umumiy mehnat staji yigirma yildan kam bo'lmagan taqdirda ayollarga 53 yoshdan 55 yoshgacha pensiya tayinlanadi.



Muddatidan oldin tayinlangan pensiyalar faqat ishlamaydigan fuqarolarga to'lanadi. Bunday pensiyani olayotgan fuqarolar umumiy asoslarda pensiya olish yoshiga (erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga) yetgunga qadar ishga kirgan hollarda muddatidan oldin pensiya to'lash to'xtatiladi.

"BOSHQANING KREDITINI MEN TO'LAYMANMI?"

Bir hamkasbim bankdan kredit olish uchun mendan mulkimni garovga qo'yishni so'radi. Bu kredit olishdagi oddiy rasmiyatchilik deb unga mulkimni garovga qo'yib kredit olishiga yordamlashdim. U esa kreditni olib to'lamagan. Oqibatda bank kredit ta'minoti sifatida mulkimni xatlab uni sotuvga qo'ymoqchi. Shu qonuniymi?

I. Niyozov.

Bu holatda siz barcha kredit to'lovlarini to'lab o'z mulkingizni saqlab qolasiz. Agar kreditdan jarima va penyalari hosil bo'lgan bo'lsa ularni ham to'lashga majbur bo'lasiz. Bank hisoblangan jarima va penyalarni undirishni so'rab sudga murojaat qilsa, sud undiruvni yana garovga qo'yilgan mulkingizga qaratadi. Fuqarolik kodeksining 268-moddasiga asosan agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garov talabning uni qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi, xususan foizlar,



neustoyka, ijroni kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zarar to'lanishini, shuningdek garovga oluvchining garovga qo'yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to'lanishini ta'minlaydi deb belgilangan.

Ya'ni siz biror mulkingizni garovga qo'yib boshqa bir shaxsga kredit olib beryapsizmi, ertaga u kreditni to'lamagan taqdirda siz ham asosiy qarzni, ham asosiy qarzga hisoblangan penya, jarima va boshqa zararlarni ham garovga qo'ygan mulkingiz hisobidan to'lashga majbur bo'lasiz.

BAHORGI DARMONSIZLIK KASALLIK EMASMI?

Bahor faslida insonda darmonsizlik, energiyaning yetishmasligi, vitamin va minerallar miqdorining kamligi kuzatiladi. Aksariyat odamlar bahorgi darmonsizlikni kasallik deb hisoblamaydi. Ammo surunkali charchoq, to'yib uxlamaslik, kundalik stresslar, kundalik yumushlarni bajarishimiz, ishga borib kelishimiz, umuman o'zimizni sog'lom his qilishimizga xalal beradi.

Ayrim hollarda surunkali charchoq, darmonsizlik organizmdagi jiddiy muammolar belgisi bo'lishi mumkin. Ular orasida yurak, miya xastaliklari va saraton alohida o'rin tutadi. Shuning uchun bunday holat kuzatilsa vaqtni cho'zib yurmay shifokor ko'rigiga borish kerak.



VITAMINLAR YETISHMASA...

Bahorda vitamin va minerallar yetishmasligi odatiy hol. Shunday belgilar borki, ular kuza-tilsa, bilingki, organizmda moddalarga bo'lgan o'tkir yetishmovchilik kuzatilmoqda. Ko'pin-cha V guruhi vitaminlari tanqisligida odam juda holsiz bo'ladi. Buning natijasida organizmdagi hujayralarga kislorod yetib borishi qiyinlashadi. Oqibatda kislorod ocharchiligi boshlanadi. Bu vitaminlar yetishmovchiligi kamqonlikka ham yetaklaydi.

GORMONLAR MUAMMOSI

Agar sizda gormonal fon izdan chiqishi qayd etilsa, bu ham surunkali charchoqqa sabab bo'lishi mumkin. Odamni o'ta horg'inlik bosadi. Hatto yotgan o'rnidan turgisi kelmaydi.

Bu shuningdek, gipoterioz, qandli diabet kabi xastaliklar alomatidir.

YURAKKA QULOQ TUTING!

Ko'pincha surunkali darmonsizlik yurak-qon tomir kasalliklari simptomi sifatida rivojlana-di. Buning sababi shuki, yurakdagi muammo-lar va qon tomirlardagi spazmlar oqibatida to'qimalarning kislorod va qonga to'yinishi izdan chiqadi. Darmonsizlik ko'p hollarda gipertoniya, ateroskleroz belgisi bo'lishi mumkin.

MODDA ALMASHINUVI BUZILISHI

Mushaklar va butun tananing to'g'ri va sama-rali ishlashi uchun organizmga ovqat bilan kira-digan glyukoza kerak. Uning so'rilishida insu-lin muhim rol o'ynaydi. Agar bu gormon qonda ko'p bo'lsa, uyqu keltiradi. Haddan tashqa-ri ko'p va talab etilmaganda u jiddiy surunkali charchoqning rivojlanishiga olib keladi. Va agar organizm to'plangan glyukozani to'g'ri sarflay olmasa, u energiyani tejash rejimiga o'tadi.

ME'YORIDA DAM OLMASLIK

Jismoniy va aqliy zo'riqish, charchoq oson-likcha o'zidan darak bermaydi. Agar inson o'zi sevgan mashg'ulot bilan shug'ullansa, qiziqib ketishi natijasida o'zidagi jismoniy va ruhiy charchoqni sezmasligi mumkin. Faqat me'yori-da uxlab, dam olish vositasida odam organizmi kun davomida sarflagan kuchlarini to'liq tiklay oladi, miya ertangi to'laqonli mehnat kuni uchun energiya oladi.

Organizm holdan toyishi natijasida vitamin zahiralari qashshoqlashib boradi. Bunda asab tizimi faoliyati ham oqsay boshlaydi. Emotsional fon ham salbiy tomonga o'zgarib boradi.

OLDINI OLISH VA DAVOLASH

Darmonsizlik va surunkali charchoqning oldini olish uchun bir qator amaliy choralar mavjud. Inson o'z hayotini yaxshilash va sog'lom yashash uchun bir necha oddiy qoidalarni amalga oshirishi lozim.

Faol hayot tarzi: Jismoniy faollik, yugurish, sport bilan shug'ullanish, organizmning umumiy holatini yaxshilaydi. Sport bilan munta-zam shug'ullanish, stressni kamaytirishga va energiyani oshirishga yordam beradi.

Ko'p dam olish: Kun davomida to'g'ri dam olish, jumladan to'g'ri uyqu rejimini saqlash, insonning jismoniy va ruhiy sog'lig'i uchun juda



muhim. To'g'ri uyqu insonning energiyasini tiklashga yordam beradi.

Stressni boshqarish: Stressni kamaytirish uchun meditatsiya, yoga va nafas olish mashqlari kabi usullarni qo'llash foydali. Bu usullar ruhiy holatni yaxshilash va jismoniy holatni barqarorlashtirishda yordam beradi.

FOYDALI MAHSULOTLAR

Qishki vitamin tanqisligidan so'ng bahorda vitamin, antioksidant hamda kletchatkaga boy mahsulotlar iste'mol qilish zarur. Bu organizm-ning yo'qolgan tonusini tiklash imkonini beradi.

Shu bois sabzavotlar, mevalarga ko'proq e'ti-bor qaratish maqsadga muvofiq.

Sabzavotlar, mevalar organizm uchun zarur C, kletchatka, bioflavonoidlar, antioksidantlar manbai.

C vitaminiga bo'lgan ehtiyojni hozirda bozor-larda ko'p miqdorda topsa bo'ladigan tuzlangan karam, sovitilgan holda saqlanadigan qorag'at (smorodina), bulg'or qalampiri, sitrus mevalar hisobiga qoplash mumkin.

Bundan tashqari, bahoriy ratsionga rediska hamda ko'katlarni qo'shish kerak.

Qishdan chiqqan organizm A, V, D va E vita-minlariga ham ehtiyoj sezadi. Shuning uchun yong'oq, go'sht, baliq, smetana va boshqa mah-sulotlarni iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Inom XOJIMURODOV tayyorladi.

BOLALAR MASSAJI: FOYDALARI VA USULLARI

Bolalar massaji bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. U nafaqat mushaklarni mustahkamlaydi, balki qon aylan-ishini yaxshilaydi, asab tizimini tinchlantiradi va immunitetni mustahkamlaydi.

1. Bolalar massajining foydalari

- Mushaklar va suyaklarni mustahkamlaydi – ayniqsa, chaqaloqlarda muskullarning to'g'ri rivojlanishiga yordam beradi.
- Qon aylanishini yaxshilaydi – organizmga ko'proq kislorod yetib borishini ta'minlaydi.
- Asab tizimini tinchlantiradi – uyqu sifatini yaxshilaydi va stressni kamaytiradi.
- Ichak faoliyatini yaxshilaydi – gazlar va qorin dam bo'lishini kamaytiradi.
- Immunitetni mustahkamlaydi – kasalliklar-ga qarshi bardoshlilikni oshiradi.

2. Bolalar massajini qachon va qancha qilish kerak?

- Yangi tug'ilgan chaqaloqlar (0-3 oy) – massaj yumshoq va ehtiyotkorlik bilan bajarili-shi kerak, 5-10 daqiqadan oshmasligi kerak.
- 3-6 oylik bolalar – kundalik yengil massaj qilish tavsiya etiladi.
- 6-12 oylik bolalar – harakatchanlik oshgani



uchun massaj dinamik bo'lishi mumkin.

- 1 yoshdan katta bolalar – harakat faolligiga ko'ra massaj vaqti va usullari tanlanadi.

Massaj qilish uchun eng yaxshi vaqt – uxlash-dan oldin yoki yuvinishdan keyin, bola tinch holatda bo'lishi kerak.

3. Bolalar massajining asosiy usullari

- Siypalash (gladenie) – terini yengil va yum-shoq ushlar orqali bolani tinchlantirish.
- Ishqalash (rastiranie) – mushaklarni faol-lashtirish va qon aylanishini yaxshilash.
- Yoqillash (pokolachivanie) – mushaklarni

mustahkamlash uchun yengil urib chiqish usuli.

- Silash (poglavivanie) – asab tizimini tinch-lantirish va bolani dam oldirish.

- Qorin massaji – ichak faoliyatini yaxshilash uchun yumshoq aylantirish harakatlari.

4. Bolalar massajida ehtiyot choralari

- Juda kuchli bosim o'tkazmaslik.
- Bolaning holatiga qarab, massajni moslashtirish.
- Juda sovuq yoki issiq qo'l bilan massaj qil-maslik.
- Bolaning terisi yoki muskullari qattiq og'rimasligi kerak.

- Agar bolada teri toshmasi, isitma yoki kasal-lik belgilari bo'lsa, massaj qilish mumkin emas.

Bolalar massaji ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Uni doimiy ravishda va to'g'ri usullarda bajarish bolaning sog'lom o'sishiga yordam beradi. Agar maslahat yoki mutaxassis yordami kerak bo'lsa, pediatr bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Feruza YO'LDOSHEVA,

**Bekobod shahar tibbiyot birlashmasi
bolalar bo'limi katta hamshirasi.**



TARIX "XATOSI"

To'qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi.
O'ninchi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Metafizika" asariga eng mukammal sharh yozib, "ikkinchi ustoz" unvonini oldi.

O'n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy Yer bilan Oy o'rtasidagi masofani o'lchadi. Ibn Sino meditsina Qomusi – "Tib qonunlari"ni yaratdi.

O'n to'rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevroosiyoning yarmi-ni tasarrufiga oldi. Ahli ilm boshini silab, o'lmas obidalar yaratdi.

O'n beshinchi asr. Ulug'bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa"sini yozdi.

O'n oltinchi asr. "Boburnoma" olamga tarqaldi.

O'n yettinchi asr. Shoh Jahon dunyodagi yetti mo'jizaning biri – "Toj mahal"ni bunyod etdi.

Yigirmanchi asr. O'zbek-sovet olimlari misli ko'rilmagan "ixtiro" qildilar: tarix "xato"sini tuzatib, o'tmishda biz yoppasiga "savodsiz" bo'lganimizni isbotlab berdilar...

O'tkir HOSHIMOV.

SHOSHILMASLIK KERAK ...

Bir inson o'g'li bilan poezdda ketib borar edi. Bolaning yuzida beqiyos quvonch va hayrat ifodasi aks etardi. U derazadan qo'lini chiqarib, shamolni his qilib: "Ota, qarang, hamma daraxtlar ortimizdan ketayotgandek!", deb baqirdi. Ota o'g'lining xursandchiligiga sherik bo'lib, yuzida tabassum bilan javob qildi.

Yonlarida o'tirgan juftlik ota va o'g'lining suhbatini eshitib turdi va biroz g'ashlari keldi. Chunki yigitcha yosh bolalar kabi harakatlanayotgandi. Bir vaqt o'g'il yana "Ota, qarang, bu ko'ldagi hayvonlarga, bulutlar poezd bilan birga ketmoqda!" deb yana quvonch bilan baqirdi. Juftlik yanada hayron bo'ldi.

Keyin yomg'ir yog'a boshladi va yigitcha qo'lga yomg'ir tomchilari tushganini his qilib, yana quvonch bilan:

"Ota, yomg'ir yog'yapti, suv qo'lim-

ga tegdi, qarang, ota!" dedi.

Shunda juftlik sabr qila olmay, otadan: "Nega o'g'lingizni shifokorga ko'rsatib, davolatmaysiz?" deb so'radi.

U kishi esa shunday javob berdi: "Biz shifoxonadan kelyapmiz, o'g'lim hayotida birinchi marta ko'ra boshladi."

Esingizda bo'lsin: Barcha haqiqatlarni bilmaguncha xulosa chiqarmang!



HIKMATLAR XAZINASI

Inson – dengiz kabidir. Yolg'izgina usti bilinadi, ostida nimalarni saqlaydi, ichida qanday g'alayonlar bo'layotganini so'zlamaydi. Faqatgina jimgina ovozsiz oqib turadi...

Hazrati Mavlono Rumi.

Har bir odamga hurmat va yaxshilik bilan qarang – ular shunga loyqliklari uchun emas, siz inson bo'lganligingiz uchun.

Konfutsiy.

QISQA VA TA'SIRLI HIYOYALAR



ENG MEHRIBON ONA

– Aka, oyimning aytishlaricha ikkalamizdan birimiz asrandi ekanmiz – onamiz boshqa ekan... Ammo, bilmadim qay birimiz...

MEHR

"Kun bo'yi ro'zador holida qurilishda, oftob tig'ida ishladi, juda ochiqqandir", o'yladi ayol eriga zimdan qarab. "Yaxshisi, boya yeb olgandim, qornim to'q deb aytaman".

"Homilador ahvolidan tuzuk-quruq yedira olmayapman", o'yladi erkak ayoliga gunohkorona boqib. "Ikki kishi uchun yeyishi kerak. Yaxshisi... do'stimnikida iftorlik qilib keldim, deymen".

Do'ppidekkina palov eru xotin o'rtasida hokisor turardi...

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Nima sotib olinganda qora bo'ladi, ishlatilsa qizil, tashlab yuborilganda esa kulrang bo'ladi?

Odam uchta narsaning qadri-ni doim kechikib bilar ekan. Ularni bilasizmi?

Yozuvchi Jeyms Rivz roman yozadi, ammo uning kitobini hech kim sotib olmaydi. Yozuvchi kitobini reklama qilishga qaror qilib, gazetalarga e'lon joylashtiradi. Bu e'lon chiqqanidan so'ng yozuvchining romani bir kunda bitta ham qolmasdan sotilib ketadi. U gazetaga qanday e'lon bergan?

Yoshlar tarbiyasi biz uchun qanday masala?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

* 2 yoshga to'lmagan bolali ayollarga bolani ovqatlanirish uchun (o'ziga berilgan dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tash-

qari) kamida har 3 soatda bir marta har biri 30 minutdan kam bo'lmagan tanaffus beriladi.

* Dilbar Abdurahmonova nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda birinchi ayol dirijor sanaladi.

* Ayollar erlarini yelkalariga mindirib shahardan chiqib ketishadi.

* 12 yoshga to'lmagan ikki va undan ko'p bolasi yoki 16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi bo'lganligi uchun qo'shimcha ta'tillar beriladi.

* Massaget qabilasi malikasi To'maris miloddan avvalgi 529-yilda forslar podshohi Kir II ni jang maydonida yenggan edi.

* Sobiq ittifoqda xizmat ko'rsatgan temir yo'l xodimasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jismoniy tarbiya va sport xodimasi Bashorat Mirboboyeva.

* Ayollarning immuniteti kuchli.

* Ayollarning bo'yni erkaklarnikidan harakatchan va egiluvchan. Shu sababli chaqirganda, ayollar bo'yni bilan burilib qaraydi, erkaklar butun tanasi bilan o'giriladi.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

Quyvon o'rmonga nozir qilib tayinlanibdi. U tipratikanni: "Tikanlarning jamoat joyida xavfli", deb qamab qo'yibdi. Qamoqxona kamerasiga kirsam, laylak o'tirganmish. Tipratikan unga hasrat qilibdi:

– Qara, tikanim uchun qamashdi. Aslida tabiatan shunaqa bo'lsam, men nima qilishim kerak? Shunda Laylak:

– E, bu hech narsa emas! Meni har yili qishda qaysi daromad hisobiga janubga dam olgani uchib ketasan, deb qamashdi... – dermish...

Nonushta payti eri xotiniga:

– Kecha futbolni kutmay uxlab qolibman. Internetdan natijasini bilib olishim kerak, – desa, xotini:

– Biznikilar 2:1 ga yutqazishdi. Eri:

– Nima sen futbol ko'rdingmi? Xotini:

– Yo'q. Qo'shnimiz tunda bir marta "Gol" va ikki marta "Padaringga la'nat" deb baqirganini eshitdim.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda bir marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi va "Stamperia
business" xususiy korxonasi
bosmaxonasida chop etildi.
Xususiy korxona manzili:
Toshkent viloyati Parkent
tumanining Qoraqalpoq QFY.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-14.20
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O'zmetkombinat"
Ajda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №